



## O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI DOIRASIDA SURXONDARYO MUSIQA MADANIYATINING KELIB CHIQISHI VA UNING SHAKLLANISH SHART-SHAROITLARI

**Qulturayev Islomjon Jo‘ra o‘g‘li**

Termiz Davlat Pedagogika Instituti magistratura bo‘limi 2-bosqich magistranti

**Annotation:** This article describes the popular songs and tunes of Uzbek folk music, division of Uzbek folk music into types based on artistic content and role in human life, local styles in the art of Uzbek music performance.

**Key words:** Key words: seasonal songs, labor songs, music culture in Surkhandarya, archaeological expeditions

**Аннотация:** В данной статье описаны популярные песни и мелодии узбекской народной музыки, деление узбекской народной музыки на виды исходя из художественного содержания и роли в жизни человека, местные стили узбекского музыкального исполнительского искусства.


**Ключевые слова:** Времена года, трудовые песни, Сурхандарьинская музыкальная культура, археологические экспедиции.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek xalq musiqasining mashhur qo‘shiq va kuylari, o‘zbek xalq musiqasining badiiy mazmuni va inson hayotidagi o‘rni asosida turlarga bo‘linishi, o‘zbek musiqa ijrochiligi san‘atidagi mahalliy uslublar yoritilgan..

**Kalit so‘zlar:** Mavsum, mehnat qo‘shiqlari, Surxondaryo musiqa madaniyati, arxeologik ekspeditsiyalar

Asrlar davomida taraqqiy qilib kelayotgan, O‘zbek xalq musiqasining turli janrlari badiylashmoqda. Xalq musiqa ijodi ham folklorning boshqa turlari singari badiiy va g‘oyaviy, mazmunan ixcham va mukamal ko‘rinishlarga, juda ko‘p tarixiy asoslarga ega bo‘lgan san‘at turidir. Unda milliy musiqa san‘atining yorqin namunalari nafasoti, xalqning falsafiy ijtimoiy tafakkurga boy teran fikr va g‘oyalari o‘z aksini topgan.

O‘zbek musiqa san‘atining ildizlari juda qadimiydir. Tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlar va arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradi. Eramizdan





oldingi IV-asrda Iskandar Zulkarnayn O'rta Osiyoni zabt etganida yunonlar, ajdodlarimiz bo'lmish so'g'diylar, baqtriyaliklar va xorazmiylklarnig boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar. Ularning mashshoq xonandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiq va kuylarini, yuksak ijrochilik san'atining, shuningdek turli cholg'u asboblarni o'rganib, o'zlarining musiqa madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u asboblarni Ovro'po xalqlari amaliyotida qo'llanib, yangi ko'rinish va nomlanishda taraqqulgan. Ulardan ba'zilarini misol tariqasida keltirib o'taylik. Masalan: Ud-lyutniya, dutor-gutor, arg'anun-arfa va boshqalar.

Har bir milliy musiqaning asosi xalq musiqasi bo'lgani singari, O'zbek xalq musiqasi ham ijodning boshqa turlari singari, sodda ixcham va mukammal shakllarga, xilma-xil janrlarga boy.


O'zbek xalq musiqasining omaviy qo'shiq va kuylari badiiy mazmuni va hayotiy o'rniga qarab quyidagi turlariga bo'linadi:

Mavsum - marosim kuy qo'shiqlari ( marsiyalar, yig'i-yo'qlovlar, yor-yorlar, qo'shiqlar)

Mehnat qo'shiqlar - kunda ijro etiladigan kuy qo'shiqlar (terma (yoki cho'plama)), qo'shiq (tor ma'noda), lapar, yalla va ashula, shuningdek, xuddi ularga o'xshash tipdagi cholg'u pesalar kiradi)

Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Dehqonlar, hunarmandlar ishlab turib qo'shiq aytganlar. Qo'shiq kishilar mehnatini yengillatgan, ayrim so'zlari, undov, nidolari ko'pchilikning baravar harakat qilishini uyushtirgan. Shu sababdan qo'shiqdagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo'lgan. Ayrim so'zlar vaqt-vaqti bilan takrorlanib, hayqirik, chaqiriq, shikoyat yoki mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytib turilgan.

Mehnat qo'shiqlari mazmunan dehqonchilik, bog' va bog'chachilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik va boshqa kasblarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Mehnat turlari xilma-xil bo'lganidek, mehnat qo'shiqlari ham turli - tumandir. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga qo'shchi, o'rim, xirmon yanchish, yorg'ichoq qo'shiqlari kiradi.






Insonning yashash va hayot kechirish tarzi, yilning to‘rt fasli, mehnat oylari, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar, mavsumiy ish-harakatlar bilan bog‘liq ravishda juda ko‘p qo‘shiqlar yaratilgan. Marosimlar, odatlar, turli-tuman bo‘lganidek, bularga bag‘ishlangan qo‘shiqlar ham xilma-xildir: boychechakning ochilishi, yangi yil-navro‘zning kelishi, bahor yomg‘iri, laylak kelishi, ekinlarning pishishi, xirmon quvonchi, donlarni qushlardan saqlash singari voqealarga qo‘shiq bag‘ishlangan. Qo‘shiqlar xalqning oila bayramlarini, marosimlarini bezab kelgan. Mavsum va marosim bayramlarida kishilar o‘yin-kulgi qilgan, dam olishgan, yangi mehnat faoliyatiga ilhomlanganlar.

Kishi hayotida birinchi qo‘shiq, bu mehribon ona allasi, albatta. O‘tmish alla qo‘shiqlarida zahmatkash, mushtipar, ezilgan mazlum sharq onasi obrazi gavdalanadi. Uning betinim xatti-harakati, beminnat mehnati tufayligina murg‘ak go‘dak ulg‘ayadi, voyaga yetadi.

Turli urf-odatlar, marosim va irimlar bilan bog‘liq bir qancha qo‘shiqlar yaratilganki, bunga “Yo, ramazon”, “Barot keldi”, “Safar qochdi”, “Badik”, “Bo‘ka-bo‘kavoy”, “Sust xotin”, “Boychechak” kabilarni ko‘rsatish mumkin. Shulardan “Yo, ramazon” eski yil kalendaridagi ramazon oyida bolalarning (ilgarigi zamonlarda kattalarning ham) hovlima-hovli yurib aytadigan qo‘shiqlari edi. Sirdan qaraganda, “Yo, ramazon” diniy mazmundagi qo‘shiqlarga o‘xshasa-da, ularda xonandon egasiga farzand ko‘rish haqida istaklar, ularning saxiy bo‘lishi yoki baxilligi kabi motivlar ustunlik qiladilar.

To‘y-juda qadim zamonlardan beri kishilar hayotida muhim voqea bo‘lib kelgan. Xalqning ma‘naviy boyligi to‘y-tomoshalarda namoyon bo‘ladi. To‘y marosimlari-uylanish to‘yi, xatna to‘yi, yosh to‘yi, beshik to‘yi singari xilma-xil bo‘lganidek, uning qo‘shiqlari ham turli-tumandir. Quyida, asosan nikoh to‘ylarida aytiladigan qo‘shiqlar haqidagina fikr yuritamiz. Bunday qo‘shiqlarda yigit-qizning baxtini tilash, ularning yaxshi kelajagini orzu qilish, muhabbat taronalari kuylanadi.

Qiz uzatar kechasida aytiladigan qo‘shiqlardan biri “Yor-yor” dir. “Yor-yor” respublikamizning hamma yerida ham keng tarqalgan va uni asosan ayollar ijro etishadi. Ayrim joylardagina uning erkaklar tomonidan ham aytilishi kuzatilgan.





Nikoh to‘ylarida qizning uyida kechqurun o‘tkaziladigan “Qiz oqshomi”, “Qizlar majlisi”, “Qiz oshi”, “Lapar kechasi” deb ataladigan bazmlarda lapar aytiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g‘azal-baytlar aytishganda, xuddi so‘z bilan tortishmashoq o‘ynaganday bo‘ladi.


Nikoh to‘ylari, ba‘zan bayram kunlari, ayrim yig‘inlarda, asosan cholg‘usiz, aytiladigan o‘lanlar ko‘proq chorvadorlar, dehqonlar orasida tarqalgan. o‘lanlarda cho‘pon yigit bilan cho‘pon qiz sevgi dardlaridan bahs etib, so‘zamollikda, chechanlikda, odamiylikda bir-birlarini sinaganday bo‘ladi, musobaqadosh tomonlar bir-birlariga sovg‘alar beradilar.

Kelinchakni kuyovning yaqin qarindosh-urug‘lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki betochar qo‘shiqlari aytiladi. An‘anaga ko‘ra, kayvoni (dasturxonchi) kelinni tushadigan uyga darvozadan olib kirishdan boshlab aytadi. Uy egalari, to‘yga kelganlar esa “Alik salom” deb javob qaytaradilar.

Qadrdon kishining vafoti munosabati bilan ayollar tomonidan yig‘larida marhumning eng yaxshi sifatleri yo‘qlanadi, shafqatsiz o‘lim tufayli boshga tushgan musibat, judolik dardi g‘am-alam bilan izhor etiladi. Yig‘ilarning boshlovchilari (aytib-aytib yig‘lovchi) bo‘ladi. Bularni go‘yanda yoki yig‘inchi deyiladi. Har bir to‘rtlikdan so‘ng ayollar bir ohangda “uv” tortadilar.

Xalqning eng yaxshi orzularini ifodalagan, yuksak insoniy fazilatlarini boy va chuqur ruhiy kechinmalarda aks ettirgan, yakka holda va jamoa bo‘lib, ma‘lum kuy bilan ijro qilinadigan qo‘shiqlarga lirik qo‘shiqlar deb aytiladi. Tematik jihatdan rang-barang bo‘lgan lirik qo‘shiqlarda ob‘ektiv voqelikdagi muayyan hodisalar inson qalbida tug‘dirgan tuyg‘u va hislar keng yoritiladi. Ishq-muhabbat mavzusidagi lirik qo‘shiqlar mazmundorligi, mavzusidagi lirik qo‘shiqlar mazmundorligi, musiqiyliigi, dilga yaqinligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda haqiqiy sevgini ulug‘lash, qadriga yetish, ma‘naviy va axloqiy soflik, vafo va sadoqatning qimmatini tabiiy va samimiyat bilan tasvirlanadi.

Xalqning lirik qo‘shiqlariga xos xususiyat shuki, ularda mehnatkash xalqqa xos kamtarinlik, poklik, ko‘ngillarning beg‘uborligi, samimiylik ravshan aks etadi. Ularda





sevimli, andishali, hayoli, oqila yor obrazi o'zining bir olam sevinchlari, nozkarashmalari bilan gavdalanadi.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli xissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga ega. O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeolog olimlar tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo'lib xizmat etadi hamda bu xalqlarning qadimdan boshlab yuksak madaniyat egalari bo'lganligini tasdiqlaydi. Lekin arab istilosi davrida (VII - IX asrlar) boshqa madaniy yodgorliklar qatorida musiqaga doir yozma manbalar xam kuydirilib, yo'qotib yuborilgan. Shuning uchun O'rta Osiyo xalqlarining so'nggi ming yillik madaniyati tarixiga oid yozma manbalargina bizgacha yetib kelgan.

Musiqa madaniyati olamida har bir musiqiy uslub o'z tarixi, xususiyati va an'analariga ega. Bu an'analar esa, uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo'lib, har bir xalqning turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari, marosimlari, bayramlari, urf-odatlariga bilan o'z xususiyatlariga ega.

Surxondaryo musiqa madaniyatida mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar salmoqli o'rinda turadi. Bu turdagi qo'shiqlar aholining qadimgi davrdan buyon saqlanib kelinayotgan chorvachilik va dehqonchilik kasblari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Chorvachilikka doir qo'shiqlar (aytimlar) assosan "sog'im qo'shiqlari" dan iborat bo'lib. Ular qora mol, biya, tuya, echki, qo'y kabi hayvonlarni sog'ish vaqtida kuylangan<sup>1</sup>. Bunda "xo'sh-xo'sh" aytimi qora molni sog'ishda "Turey-turey" va "churey-churey"lar jonivorlarni tinchlantirish, erkalash va ulardan iydirib ko'p sut sog'ib olish maqsadlarida qo'llaniladi. Dehqonchilik qo'shiqlari shu kasb bilan bog'liq jarayonda yuzaga kelgan qo'shiqlardan iborat bo'lib, "Qo'sh haydash", "Xo hayda", "Mayda-mayda", "Yozi" kabi nomlar bilan atalib kelinadi.

Qo'sh haydash qo'shigi yer haydash paytida ho'kizga qo'shilgan omochni boshqarib borayotgan dehqon tomonidan ayitilsa "Yozi" aytimi hosilni o'rish paytida "Xo'p hayda" va "Mayda-mayda"lar va bug'doy va arpa poyalarini xirmonda ot yoki

<sup>1</sup> "O'zbek musiqa tarixi" Toshkent - "Musiqa" 1979 yil.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

ho'kizlar yordamida yanchish vaqtida hirgoyi qilinadi. Dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarning boshlanishida "Shox moylar" marosimi o'tkazilgan. Bu marosimga boshlanishi erta bahor fasli, ya'ni yerni dastlabki haydash vaqtiga to'g'ri keladi. Marosimda qishloq ahli yig'ilib, ho'kizlarning shoxlarini Navro'z bayramiga atab pishirilgan bo'g'irsoq yog'i bilan moylashgan hamda qishloq keksalaridan biri bobo dehqon bo'lib dalaga birinchi qo'sh solgan. Ana shu paytda marosimda hozir bo'lgan "Shox moylar" qo'shig'ini kuylashgan.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspedisiyalar (S.L. Tolstov, V.A.Vyatkin, M.V.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O'rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay rubobsimon cholg'u, hozirgi doiraga o'xshash do'mbra, nog'ora va shu singari cholg'u asboblari chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproq qal'a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: Lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud, shemani, (musiqor) chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularda mashq qilishlari tasvirlangan.

Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarda ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'pincha yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va chindavul kabi urma zarbli musiqa asboblari keng qo'llanilgan. Feodalizm davrida arab istilosi O'rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. VII-VIII asrlarda arab xalifaligida tirik jonzotni tasvirlashni taqiqlovchi, islom dinini yoyilishi, devoriy sur'atlarni shu jumladan musiqa cholg'ulari tasvirining barham topishiga olib keldi.

"O'rta asrlarda faqat mumtoz ijodkorlik qatlamida "O'n ikki maqom"dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha yetib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, an'anaviy ijrochilik va surnay yo'llari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik san'ati musiqiy





madaniyatimizning sarchashmalari sifatida bahramand qilib kelmoqda”. Asrlar davomida sayqal topgan, betakror xalq kuy va qo‘shiqlarimiz, an’anaviy musiqa madaniyatimiz avloddan – avlodga “ustoz-shogird an’analari” vositasida bizgacha yetib kelishida O‘z davrining mashhur sozanda va xonandalarining kasblariga bo‘lgan fidoyiliklari, chuqur muhabbatlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, O‘zbek musiqa ijrochiligi san’atida 3ta mahalliy uslub mavjud bo‘lib, ular quyidagicha nomlangan:

1. Samarqand – Buxoro ijro uslubi.
2. Xorazm ijro uslubi.
3. Farg‘ona – Toshkent ijro uslublaridir.

Bugunga kelib bu mahalliy uslublar qatoriga yana bir mahalliy uslub ya’ni, Surxondaryo – Qashqadaryo ijro uslubi ham kirib kelgan. Har bir mahalliy uslubda o‘ziga xos ijrochilik yo‘llari va ijrochilik xususiyatlari mavjud. Har bir hududiy uslub – O‘zbek an’anaviy musiqa madaniyati va musiqa ijrochilik an’alarining uzoq o‘tmishga borib taqaladigan boy musiqa merosi va ijrochilik an’alariga egadir. “Har bir yo‘nalish shakl va ijrochilik nuqtai nazaridan o‘z uslubi, qonun-qoidalari va shaklshamoillariga egadir. Ular orasida klassik xususiyatlar doirasida shakllangan va eng mukammal an’analarni o‘zida aks ettirgan an’anaviy yo‘nalish o‘zining barcha xususiyati, nufuzi va salohiyati bilan ibrat bo‘lib kelmoqda”<sup>2</sup>.

O‘zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari, ularning o‘ziga xos ko‘rinishi, bo‘yoqlari, uslublari, ijrochilik an’analari, yetakchi janrlari bilan o‘quvchilarni tanishtirib borish jarayonida

1. Nazariy va amaliy bilimlardan, mavsum, marosim, qo‘shiqlari, yalla, lapar, alla, doston qo‘shiqlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan imkon qadar o‘rinli va unumli foydalanish, har bir aytm, cholg‘u musiqasi, xalfachilik va baxshilar ijodiga mansub qo‘shiqlarni tanlash, tinglash, ijro yetishda ularning axloqiyestetik tomonlarini e’tiborga olish, ijro uslubi, an’anaviyligi, qanday holatda, kimlar tomonidan, qanday sozlar jo‘rligida ijro etilishi, badiiy-emotsional ta’sirchanligi, musiqiy ohangdorligi va

<sup>2</sup> S.Begmatov. “Hofizlik san’ati” T., 2007., 4-bet.





uning o'quvchilar tomonidan idrok qilinishiga, o'z navbatida bu faoliyatning estetik tarbiya nuqtai-nazaridan qanday ta'sirchanligi kasb etishiga;


2. Musiqa darslarida mavzu doirasidagi darslarni tashkil qilishda uning o'quvchiga ijobiy estetik-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan pedagogik muhitni vujudga keltirish, qo'shiq, aytim, cholg'u kuylarini ijro etish, tinglash, ular haqidagi suhbat, hikoya, tushuntirish ishlarida estetik tarbiya qonuniyatlariga amal qilish va musiqa o'qituvchilarida hamda o'quvchilarda o'zbek folklor musiqasi, ularning to'rtta mahalliy uslubga xos namunalarini ijro eta olish, ular haqida o'z janrlarini tushuntirib bera olish, baholay olish ko'nikmalarini shakllantirish;

3. Musiqa madaniyati mashg'ulotlarida xalq baxchilik sa'ati, Samarqand, Qashqadaryo-Surxondaryo, Xorazm baxshi-dostonchilik maktablari, ulkan namoyondalari ijodi, doston qo'shiqlarini ijro qilish uslubi, yallachilik, xalfachilik, sozandachilik, katta ashula, mavrigi, qarsak jo'rligida aytiluvchi qo'shiqchilik san'ati haqida o'quvchilarda yetarli nazariy ma'lumotlar berish, ularning musiqiy nazariy bilim, konikma va malakalarini rivojlantirish, estetik did, idrok va orqali milliy qadriyatlarimizni ongli tushunish xislatlarini shakllantirish;

Ushbu ishlarni amalga oshirishda ma'ruza, amaliy savol-javob, texnik vositalar yordamida turli mahalliy uslubdagi asarlarni tinglash, bir xil (masalan, lapar, yalla, dostonchilik) janridagi aytimlarni turli uslubdagi ijrolarini tinglash, tahlil qilish, taqqoslash, o'z taasurotlarini so'zlab berish, matnlar mazmunini sharhlash, me'yoriy bayon, kuylab berish kabi usullardan keng foydalanish;

Ushbu faoliyada o'quvchilarni mahalliy uslublarga tegishli namunalar, ular haqidagi bilim va tushunchalar bilan tanishtirish uchun tanlangan usul, shakl, vositalar hamda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi har bir sinf kesimida hisobga olinadi.

Milliy folklor-etnografik ansambllari repertuardagi asosiy asarlar tegishli hududlarda yashovchi mahalliy aholining turmush tarzini o'zida ifodalovchi, shu madaniy taraqqiyoti rivojlanish jarayonida qaror topganligi bilan xarakterlidir.





**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Naimov M. (Folklor qo‘shiqlari) O‘quv qo‘llanma Termiz 2013 yil
2. Toshmatov O‘ “Folklor qo‘shiqlari”. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2003.
3. G‘ofurov H. Xalq o‘yinlari, qo‘shiqlari va an‘analariga bir nazar. -T.: Kamalak, 1992.
4. O.Ibragimov “O‘zbek xalq musiqa ijodi”, T; 1994 y.

